

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR FAOLIYATINI MAHALLIY VA JAHON OLIMLARI TOMONIDAN TADQIQ QILINISHI

p.f.f.d (PhD), dotsent Xaitov Bahodir Tursunovich

Quruqlikdagi qo'shinlar instituti

Milliy iftixor va harbiy-vatanparvarlik kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shoh va shoir, buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyatining mahalliy va jahon olimlari tomonidan tadqiq qilinishi haqida qisqacha bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, "Boburnoma", davlat arbobi, mahalliy va jahon olimlari.*

O'rta asrlar tarixining yetuk namoyondalari bo'lgan Muso al-Xorazmiy (780-846), Abu Nasr Farobiy (870-950), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037) va boshqalar nafaqat mintaqamiz, balki jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Keyingi davrlarda Mirzo Ulug'bek (1394-1449), Alisher Navoiy (1441-1501), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) kabilar jahon sivilizatsiyasida muhim o'rin egallagan buyuk shaxslar hisoblanadi.

Ular orasida Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati alohida e'tiborga loyiq noyob voqe'lik sifatida ajralib turadi. Uning o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat mintaqamiz, balki G'arbda ham Sarqda ham o'z siyosati, aql-zakovati, buyuk sarkardalik mahorati, qomusiy fanlar bilimdoni, davlat boshqaruvi va ijodiy faoliyatni teng olib borgan kam sonli insonlardan biridir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar zamirida, yoshlarimizni har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk, harbiy-vatanparvar shaxslar etib tarbiyalash eng muhim vazifalarimizdan biridir. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim" [1-199].

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy tarix, xususan, o'zbek xalqining haqqoniy tarixini o'rganishga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari nafaqat yurtimiz balki xorijda ham katta qiziqish bilan o'rganilmoqda.

O'zbekiston va jahon olimlari sa'y-harakatlari, zahmatli ko'p asrlik mehnatlari tufayli Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi butun barkamolligi bilan tarixiy va adabiy siymo sifatida baralla qad ko'tardi. Fanda boburshunoslik va „Boburnoma“ shunoslik yo'nalishlari yuzaga keldi, deyishimiz mumkin.

Zahiriddin Boburdagi tabiiy iste'dod uning har tomonlama rivojlangan va qomusiy bilimlarni o'zida mujassamlantirgan shaxsiyati, aql-zakovati, insoniy xislatlari va qolaversa, uning ochiq, ko'ngilliligi, nozik tabiatliligi bizni doimo hayratga solib keladi. Boburning asosiy maqsadlaridan biri yagona markazlashgan davlat barpo etish, mamlakatni obod etib, ezgu niyatlarini amalga oshirish edi. Boburning bu maqsadlari Hindistonda amalga oshdi. Uch asrdan ortiq, davom etgan va Hindiston tarixida muhim rol o'ynagan markazlashgan davlatning vujudga kelishi, albatta, Bobur nomi bilan chambarchas bog'likdir. Neru o'zining „Hindistonning kashf etilishi“ va „Jahon tarixiga bir nazar“ asarlarida Bobur va uning nabirasi Akbarga yuksak baho bergan. Jumladan, u shunday deb yozadi: „Bobur – dilbar shaxs. Uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevardi. Hayotdan huzur qilishni yaxshi ko'rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq va ko'p yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan. Mard, jasur, iste'dodli lashkarboshi, rahmdil, shafqatli, idealist va xayolparast, shu bilan birga, u harakatchan, o'z ishini davom ettiruvchilarning sadoqatiga sazovor bo'lish uchun intiluvchi odam bo'lgan [3-9].

O'zbekistonda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o'rganish, asosan XX asrning 40-yillaridan boshlandi. Boburning O'zbekistonda tanilishi va o'rganilishida olimlardan Abdurauf Fitrat, Maqsud Shayxzoda, Homil Yoqubov, Oybek, Olim Sharofiddinov, Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, Aziz Qayumov, Vohid Abdullayev, Natan Mallayev, Botirxon Valixo'jayev, Xosiyat Nazarova, Hamidulla Hasanov, Said Aliyev, Aleksandr Samoylovich, Iya Stebleva, Mixail Salye, Sabohat Azimjonova, Saidbek Hasanov, Abdurashid Abdug'afurov, Yoqubjon Ishoqov, Ibrohim Haqqul, Turg'un Fayziyev, Fozila Sulaymonova, Fathiddin Ishoqov, Hasanjon Quدراتillayev, Ismoil Bekjon, Begali Qosimov, G'aybulla Salomov, Ne'matulla Otajonov, Ansoriddin Ibrohimov, Rahim Vohidov, Hamidulla Boltaboyev, Iqboloy Adizova, G'afurjon Sotimov, Zokirjon Mashrabov, Sayfiddin Jalilov, adiblardan Pirimqul Qodirov, Xayriddin Sultonov, Qamchibek Kenjaning xizmatlari alohida e'tirof etish lozim.

So'nggi yillar davomida Bobur va boburiylar haqidagi kitoblarning ko'plab yaratilganini alohida qayd etishga to'g'ri keladi; yuzlab maqolalar, o'nlab risola va monografiyalar buning yorqin dalilidir. Hasanjon Quدراتillayevning „Bobur armoni“, Rahim Vohidovning „Biz bilgan va bilmagan Bobur“, Iqboloy Adizovanning „So'zumni ko'rub anglag'aysan o'zumni...“, Ansoriddin Ibrohimovning „Boburnoma“ – buyuk asar“, „Boburnoma“dagi hindcha so'zlar“,

G'afurjon Sotimovning „Boburiy zodalar“, „Markaziy Osiyo va Hinduston tarixida boburiylarning o'rne“, Sayfiddin Jalilovning „Bobur va Yuliy Sezar“, „Bobur haqida o'ylar“, Fathiddin Ishoqovning „Boburnoma“ uchun qisqacha izohli lug'at“, Zokirjon Mashrabov va S.Shokarimovning „Asrlarni bo'ylagan Bobur“, Aziz Qayumov va Saidbek Hasanovning „Bobur ijodiyoti“, Qamar Raisning „Bobur shaxsi va she'riyati“, Rumer Godenning „Gulbadan“ romani, Pirmqul Qodirovning „Yulduzli tunlar“, „Avlodlar dovoni“ romanlari, Xayriddin Sultonovning „Boburning tushlari“, „Saodat sohili“, „Boburiynoma“ qissalari va ma'rifiy romani, Qamchibek Kenjaning „Hind sorig'a“, „Buyuklar izidan“, „Andijondan Dakkagacha“, „Andijondan Bag'dodgacha“ safarnomalari shular jumlasidandir.

Jahon sharqshunoslari Boburning kitobiga shunchalik qiziqadilarki, asar yevropa tillariga o'nlab marotaba tarjima qilingan. „Boburnoma“ning ilmiy qiymatini yuqori baholab, nemis tarjimoni A.Kayzer shunday deydi: „Podshoh Boburning „Boburnoma“ asari shubhasiz Osiyoning tarixi, madaniyati va geografiyasi haqidagi eng muhim asarlardan biridir. Uning muallifi sharq hukmdorlari orasida juda kam uchraydigan bilimdon hokim va shoirdir. „Boburnoma“ning muallifi har tomonlama yetuk bilimdon va o'ta tadbirkordir“. Yaponiyalik yirik boburshunos Eyji Mano „Boburnoma“ni „ma'lumotlar xazinasi“ deya atagan bo'lsa, angliyalik boburshunos Beverij xonim „butun tarixda yaratilgan yozma yodgorliklarning eng bebahosidir“, – deydi. Germaniyalik boburshunos Klaus Shoning esa „Boburnoma“ga baho berib, „mukammal tizimdagi xalq tilida yozilgan eng katta hajmdagi asardir“, – deya ta'kidlagan.

Misrlik tarixchi va sharqshunos olimi Doktor Magda Salah Mahluf, „Boburnoma“ jahon madaniyati tarixida o'lmas tarixiy va adabiy qimmatga ega asar sifatida munosib o'rin egallaydi. Shu sababdan ham u jahonning ingliz, fransuz, urdu, fors, turkiy va boshqa tillariga tarjima qilingan. Biz esa bu asarni arab tiliga o'girdik, deb ta'kidlaydi [4-29].

„Boburnoma“ning jahonga mashhur bo'lishida, asosan ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo'ldi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to'liq nashrini (ingliz tilida) 1826-yilda J.Leyden va V.Erskin amalga oshirdi. F.Talbot esa mazkur nashr asosida 2 marta (1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921-yilda ingliz sharqshunosi A.Beverij „Boburnoma“ni mustaqil suratda asl nusxadan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyaning o'zida „Boburnoma“ tarjimalari 9 marta nashr etildi. Keyingi yillarda „Boburnoma“ning professor V.Takston tomonidan AQShda (Kembrij, Garvard universiteti, 1993) hamda ikki jild hajmda, mukammal so'zlik, ko'rsatkich va sharh, izohlar bilan Yaponiyada (Kioto, 1995-96) ilmiy-tanqidiy matni nashr etildi.

Ma'lumki, "Boburnoma" qo'lyozmalari matnida ba'zi yillar (1504-05, 1509-18, 1520-24) tafsiloti uchramaydi, 1508 va 1520-yil voqealari bayoni tugal emas. Mana shu uzilish bo'lgan o'rinlarni ingliz sharqshunoslari boshqa tarixiy manbalar asosida ma'lum darajada tiklaganlar.

"Boburnoma"forschaga (1586), undan parchalar Vitsen tomonidan golland tiliga (1705), A.Keyzer tomonidan qisqartirilgan holda nemis tiliga (1828), Pave de Kurteyl tomonidan to'la holda fransuz tiliga (1871) tarjima qilingan. "Boburnoma"ni tarjima qilish va tadqiq etishda, shuningdek Afg'oniston (Abdulxay Habibiy), Pokiston (Rashid Axtar Nadviy, Shoh Olam Mavliyot), Hindiston (Mirzo Nasriddin Haydar, Muhibbul Hasan Rizviy), Turkiya (R.R.Arat va N.I.Bayur) kabi mamlakatlar olimlarining xizmati ham katta. Rus sharqshunoslari (N.I.Pantusov, S.I.Polyakov, V.Vyatkin) ham "Boburnoma"dan parchalarni tarjima qilganlar. N.I.Ilminskiy "Boburnoma"ni Qozonda nashr ettirdi (1857).

O'zbek millati va O'zbekistonni o'z shoh asari „Boburnoma“ bilan jahonga tanitgan shoh va shoir Bobur tavalludining nafaqat, mamlakatimiz, balki jahonda keng miqyosda nishonlanishi bu buyuk siymoning qoldirgan bebaho merosi hali uzoq yillar yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatib turadi.

Ajdodlarimizning harbiy salohiyatini o'rganish bugun biz tarbiya qilayotgan yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usini uyg'otishda muhim ahamiyatga ega. Binobarin, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Mirzo Bobur singari sarkardalarimizning harbiy mahorati nafaqat o'z davrida, balki bugun ham o'zining ahamiyatini yo'qotgan emas. Shunday ekan, ularni yetarli darajada o'rganish, tahlil qilish harbiy sohada faoliyat olib borayotgan shaxsning kundalik qoidasi bo'lishi lozim.

Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi, Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir [2-29].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. -T.: "O'zbekiston", 2023, 5-jild.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017, 1-tom.
3. S.Hasanov. Zahiriddin Muhammad Bobur. -T.: "O'zbekiston", 2011.

4. Doktor Magda Salah Mahluf. "Boburnoma"ning jahon madaniyati tarixida tutgan o'рни. "Bobur va Boburiylarning jahon madaniyati tarixida tutgan o'рни" mavzuidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2008.
5. Boburnoma. -T.: "O'qituvchi" NMIU. 2008.
6. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2-tom. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2001.
7. www.uzbekembassy.ir/great.aspx
8. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Boburnoma>